



THE PHENOMENON OF SUBCULTURE: ORIGIN, ESSENCE, MODERN MANIFESTATIONS

Dildora Abzalovna Rakhimova

Senior Lecturer of the Department of Social Sciences
of the University of Science and Technology
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: subculture, culture, phenomenon, identity, globalization, digital subculture, youth culture, music subculture, fashion subculture, virtual subculture, cultural diversity, informal culture.

Received: 08.10.25

Accepted: 09.10.25

Published: 10.10.25

Abstract: This article analyzes the origin, essence, and contemporary manifestations of the subcultural phenomenon from a socio-philosophical perspective. The concept of subculture is interpreted as a group culture, formed within the framework of the general culture of society, but differing in its individual values, symbols, and customs. The article highlights the factors contributing to the emergence of subcultures - youth identity, social inequality, globalization, and digital communication processes. The formation of digital, musical, fashion, sports, virtual, and socio-political subcultures in modern conditions, as well as their positive and negative aspects, are considered. In particular, the influence of global subcultures emerging under the influence of the internet and mass culture on national culture was analyzed. In conclusion, the phenomenon of subculture enriches the cultural diversity of society, but can also enter into conflict with social values.

SUBMADANIYAT FENOMENI: KELIB CHIQISHI, MOHIYATI ZAMONAVIY KO'RINISHLARI

Dildora Abzalovna Raximova

Fan va texnologiyalar universiteti
"Ijtimoiy fanlar kafedrasi" kata o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Submadaniyat, madaniyat, fenomen, identitet, globallashuv, raqamli submadaniyat, yoshlar madaniyati, musiqa submadaniyati, moda submadaniyati, virtual submadaniyat, madaniy xilma-xillik, norasmiy madaniyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada submadaniyat fenomenining kelib chiqishi, mohiyati va uning zamonaviy koʻrinishlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Submadaniyat tushunchasi jamiyat umumiy madaniyati doirasida shakllanadigan, lekin oʻzining alohida qadriyatlari, ramzlari, urf-odatlar bilan farqlanadigan guruh madaniyati sifatida izohlanadi. Maqolada submadaniyatlarning paydo boʻlishiga sabab boʻluvchi omillar – yoshlar identiteti, ijtimoiy tengsizlik, globallashuv va raqamli kommunikatsiya jarayonlari yoritilgan. Zamonaviy sharoitda raqamli, musiqiy, modaviy, sport, virtual va ijtimoiy-siyosiy submadaniyatlarning shakllanishi hamda ularning ijobiy va salbiy jihatlari koʻrib chiqilgan. Xususan, internet va ommaviy madaniyat taʼsirida vujudga kelayotgan global submadaniyatlarning milliy madaniyatga taʼsiri tahlil qilingan. Xulosa sifatida, submadaniyat fenomeni jamiyat madaniy xilma-xilligini boyituvchi, ammo ijtimoiy qadriyatlar bilan ziddiyatga ham kirishishi mumkin boʻlgan murakkab hodisa sifatida baholangan.

ФЕНОМЕН СУБКУЛЬТУРЫ: ПРОИСХОЖДЕНИЕ, СУЩНОСТЬ, СОВРЕМЕННЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ

Дилдора Абзаловна Рахимова

*старшего преподавателя кафедры социальных наук
университета науки и технологий
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Субкультура, культура, феномен, идентичность, глобализация, цифровая субкультура, молодежная культура, музыкальная субкультура, модальная субкультура, виртуальная субкультура, культурное разнообразие, неформальная культура.

Аннотация: В данной статье проанализированы происхождение, сущность феномена субкультуры и его современные проявления с социально-философской точки зрения. Понятие субкультуры трактуется как групповая культура, формирующаяся в рамках общей культуры общества, но отличающаяся своими особыми ценностями, символами, обычаями. В статье освещаются факторы, способствующие возникновению субкультур - молодежная идентичность, социальное неравенство, процессы глобализации и цифровой коммуникации. Рассмотрено формирование цифровых,

музыкальных, модных, спортивных, виртуальных и социально-политических субкультур в современных условиях, а также их положительные и отрицательные аспекты. В частности, проанализировано влияние глобальных субкультур, возникающих под влиянием интернета и массовой культуры, на национальную культуру. В заключение, феномен субкультуры может обогащать культурное разнообразие общества, но также может вступать в конфликт с социальными ценностями.

Kirish. Submadaniyat fenomeni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda jamiyatning murakkab madaniy jarayonlarini anglashda muhim tushuncha sifatida ko‘riladi. “Submadaniyat” termini umumiy madaniyat doirasida shakllanadigan, ammo o‘zining alohida qadriyatlari, qarashlari va ramzlari bilan ajralib turadigan ijtimoiy guruh madaniyatini anglatadi. Submadaniyatlarning kelib chiqishi ko‘pincha yoshlarning o‘zini anglash jarayoni, ijtimoiy tengsizlik, siyosiy va iqtisodiy omillarga bog‘liq bo‘lib, ular jamiyatning umumiy madaniy manzarasini yanada rang-barang qiladi. Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida submadaniyatlar faqat milliy yoki mahalliy ko‘rinishda emas, balki global miqyosda ham shakllanmoqda. Musiqa, moda, sport, virtual olam va ijtimoiy-siyosiy harakatlar atrofida vujudga kelayotgan zamonaviy submadaniyatlar jamiyatga ijobiy ijodiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, ayrim hollarda an’anaviy qadriyatlar bilan ziddiyatga kirishishi ham mumkin.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Submadaniyat fenomeniga oid ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar kuzatiladi. G‘arb tadqiqotchilaridan D. Hebdige, T. Parsons, S. Hall va boshqa olimlar submadaniyatni ijtimoiy guruhlarining norasmiy qarashlari, ramzlari va qarshilik madaniyati sifatida talqin etadilar. Ularning nazariyalarida yoshlar submadaniyati, musiqiy oqimlar va ijtimoiy tengsizlik muammolari markaziy o‘rin tutadi. Antropologik yondashuvlarda esa submadaniyat madaniy xilma-xillikning tabiiy shakli sifatida izohlanadi. O‘zbekiston va MDH olimlari asarlarida submadaniyat fenomeni milliy qadriyatlar, an‘analari va zamonaviy globallashuv jarayonlari bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqiladi. Adabiyotlarda umumiy xulosa shuki, submadaniyatlar jamiyatning yangilanishi va ijodkorlik manbai bo‘lishi bilan birga, ijtimoiy ziddiyatlarni ham kuchaytirishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Submadaniyat fenomeni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida muhim tushunchalardan biri sifatida qoraladi. “Submadaniyat”[1:841] termini lotincha sub – “ostida, ichida” va cultura – “madaniyat” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, jamiyat umumiy madaniyati doirasida shakllanadigan, lekin

o'zining alohida qadriyatlari, qarashlari, urf-odatlar va hayot tarzi bilan ajralib turadigan ijtimoiy guruh madaniyatini bildiradi. Submadaniyatlar, odatda, yoshlar, etnik guruhlar, diniy oqimlar, kasbiy qatlamlar yoki ijtimoiy norozilik asosida shakllanadi. "Submadaniyat" atamasi birinchi marta 1930-yillarda amerikalik sotsiolog T.Roszak tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. "U submadaniyatni kapitalistik jamiyatning madaniy o'zagiga qarama-qarshi madaniyatga qarshi hodisa sifatida qaradi"[2:194]. Submadaniyat fenomenining mohiyatini anglash uchun avvalo uning jamiyat madaniyatiga nisbatan tutgan o'rnini aniqlash zarur. Umumiy madaniyat – bu jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar va ramzlar majmui. Submadaniyat esa, ana shu umumiy madaniyat tarkibida vujudga keladi, ammo uning doirasida muayyan guruhni ifodalovchi o'ziga xoslik mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham submadaniyat fenomeni ijtimoiy tafovutlar, guruhiiy identifikatsiya va shaxsiy o'zini anglash jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir.

Submadaniyatlarning shakllanishiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi. Submadaniyatda yoshlar omili alohida ahamiyatga ega. Chunki o'smirlik va yoshlik davri insonning shaxsiy va ijtimoiy identitetini shakllantirish bosqichidir. Shu jarayonda yoshlar umumiy jamiyat qadriyatlaridan farq qiluvchi yangi ramzlar, musiqiy yo'nalishlar, kiyinish uslublari, nutq shakllari orqali o'ziga xos dunyoqarash yaratadi. XX asrning ikkinchi yarmida "G'arb mamlakatlarida "hippi", "pank", "rokchilar" kabi submadaniyatlarning paydo bo'lishi yoshlarning ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan"[3:218-219]. Ijtimoiy tabaqalanish va tengsizlik ham submadaniyatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Jamiyatning chekka qatlamlarida yashovchi, asosiy madaniyat qadriyatlaridan begonalashgan guruhlar o'z dunyoqarashini mustaqil ifodalashga intiladi. Shu orqali ular o'ziga xos ramzlar va timsollar yaratib, umumiy madaniyat doirasida mustaqil o'rin egallashga harakat qiladi.

Globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida submadaniyat fenomeni yanada murakkablashdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va virtual maydonlar turli mamlakatlardagi yoshlar va guruhlarini birlashtirib, transmilliy submadaniyatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. "K-pop" muxlislari, "gamerlar", "bloggerlar" yoki "cyberpunk" muxlislari bunga misol bo'la oladi. Demak, submadaniyat fenomeni endilikda faqat milliy yoki mahalliy darajada emas, balki global miqyosda shakllanmoqda.

Submadaniyatlar ikki tomonlama ijtimoiy ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi. Bir tomondan, ular shaxsiy erkinlik, ijodkorlik va ijtimoiy o'zini ifoda qilishning maydoni hisoblanadi. "Yoshlar submadaniyat doirasida o'zining qadrini his qiladi, mustaqil dunyoqarashini shakllantiradi, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga o'z pozitsiyasini bildiradi"[4:399]. Bu jarayon jamiyat uchun ko'pgina holatlarda foydalidir, chunki u umumiy madaniyatning yangilanishiga, yangicha g'oyalar va estetik shakllarning kirib kelishiga yordam beradi.

Ikkinchi tomondan, ayrim submadaniyatlar umumiy madaniyatga qarshi turuvchi, jamiyat qadriyatlarini inkor qiluvchi xususiyat kasb etish holatlari ham uchraydi. Zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi yoki giyohvandlikni normal deb biluvchi submadaniyatlar ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi. Shu boisdan, submadaniyat fenomenini tadqiq qilishda uning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish muhimdir.

Submadaniyat fenomenini o‘rganishda sotsiologiya, antropologiya va falsafa yondashuvlari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Sotsiologlar submadaniyatni ijtimoiy tabaqalanish va guruhviy munosabatlar natijasi sifatida tahlil qilsa, antropologlar uni madaniy xilma-xillikning tabiiy shakli deb izohlaydi. Falsafiy nuqtai nazardan esa submadaniyat insonning ma‘naviy erkinligi, identitetni izlash va jamiyat bilan shaxs o‘rtasidagi dialektik ziddiyatlarning ifodasi sifatida qaraladi.

Ilmiy manbalarda “submadaniyat” tushunchasi 1960-70-yillarda Fransiya va AQSh universitetlarida yoshlar harakatlarini o‘rganish jarayonida faol qo‘llanila boshlandi.

“Submadaniyat” tushunchasi mohiyatan ko‘plab ta‘riflarga ega bo‘lgan “madaniyat” tushunchasiga qaraganda murakkabroqdir. Submadaniyatlar muayyan jamiyatning asosi va yaxlitligini belgilovchi, madaniy kodga asoslangan va u bilan doimiy muloqotga qaratilgan umumiyroq tizim doirasida shakllanadi. Ushbu muloqot madaniy yangilanish, uning rivojlanishi, an‘analarni tiklash yoki qarama-qarshilik, yo‘qotish shaklida bo‘lishi mumkin, ammo bu submadaniyatlarning o‘z-o‘zini anglash va o‘z taqdirini o‘zi belgilashning muhim elementidir. Ularning har biri, birinchi navbatda, madaniyatga nisbatan (hukmron, umume’tirof etilgan va h.k.) yoki uning me‘yorlari va qadriyatlarini unga qarama-qarshi qo‘yish yoki undan ushbu me‘yorlarni asoslash orqali aniqlanadi.

Submadaniyat – bu ma‘lum ijtimoiy guruhning xulq-atvor modellari, hayot uslublari, o‘ziga xos qadriyatlar va ularning ramziy ifodasidir. Submadaniyatlar yosh, irq, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi va jinsi bo‘yicha farqlanishi mumkin. Submadaniyat uchun muhim bo‘lgan xususiyatlar estetik, diniy, siyosiy, jinsiy yoki boshqa har qanday xarakterda bo‘lishi mumkin. Submadaniyat vakillari o‘z jipsligini o‘ziga xos kiyinish uslubi yoki xatti-harakati hamda o‘ziga xos belgilar va ramzlar orqali ifodalashi mumkin. Agar submadaniyatda ustuvor madaniyatga nisbatan tizimli qarama-qarshilik xos bo‘lsa, bu holda u aksilmadaniyat, deb ta‘riflanadi.

Submadaniyat – bu hayotning maxsus instituti bo‘lib, unda shaxs o‘z ehtiyojlarini amalga oshiradi. Yoshlar submadaniyati katta qiziqish uyg‘otadi, chunki zamonaviy jamiyat tahlili shuni ko‘rsatadiki, submadaniyatlarning shakllanishi va faol o‘sishi aynan yoshlar muhitida sodir bo‘ladi. Submadaniyatlar yoshlar orasida muhim ijtimoiy hodisadir. Submadaniyat orqali o‘smirlar ma‘lum qadriyatlar va me‘yorlarga, hayotiy munosabatlarga ega bo‘ladilar[5:121].

Tadqiqotchi P.S.Gurevich submadaniyatni “hukmron madaniyat doirasidagi suveren yaxlit birlik, o‘ziga xos qiymat tizimi, odatlari, me‘yorlari bilan ajralib turadigan madaniyatning maxsus

sohasi sifatida belgilaydi”[6:427]. Submadaniyatning eng mashhur ta’riflari cheklangan asoslar to’plamiga qaratilgan: ramziy (g’oyaviy, mentalitet, belgilar, madaniy kod, dunyoning umumiy manzarasi); xulq-atvor (odatlar, marosimlar, me’yorlar, modellar va xatti-harakatlarning stereotiplari); ijtimoiy (submadaniyatning tashuvchisi va uning zararli muhiti sifatida belgilangan ijtimoiy guruh, qatlam va boshqalar).

Submadaniyat nazariyasi zamonaviy jamiyatning madaniy tabaqalanishini tavsiflash variantlaridan biridir. Shu bilan birga, xuddi shu haqiqatni belgilashning boshqa variantlari ham mavjud. Tadqiqotchilar bir qator variantlarini ko’rsatishadi: aksilmadaniyat, ijtimoiy harakatlar, mahalliy tarmoqlar, ijtimoiy qatlamlar, turmush tarzi va boshqalar.

Ushbu ta’riflarning har biri o’rganilayotgan hodisaning aspektlaridan biriga urg’u berishni nazarda tutadi: simvolizm, atributlar, mafkura (hayotiy maqsadlar nazariyasi), jamoalarning ichki tuzilishi va shaxslararo muloqot turlari (ijtimoiy tarmoq nazariyasi), ierarxik tuzilishdagi o’rni, jamiyat (ijtimoiy tabaqalanish nazariyasi), ijtimoiy faollik va bu strukturaga ta’siri (ijtimoiy harakatlar nazariyalari, aksilmadaniyat va boshqalar).

Insonning ijtimoiylashuviga sub’yekt-sub’yekt yondashuviga muvofiq, biz “submadaniyat” tushunchasining quyidagi ta’rifini taklif qildik. Submadaniyat - bu ma’lum nominal va real guruhlarning, shuningdek, ushbu guruhlarga kiradigan o’ziga xos insonlarning turmush tarzi va tafakkuriga ta’sir ko’rsatadigan va ularni amalga oshirishga imkon beradigan o’ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar (me’yorlar, qadriyatlar, stereotiplar, didlar va boshqalar) majmuidir.

Yoshlar submadaniyati hodisasini ilmiy tadqiqotchilar birinchi bo’lib 20-asrning birinchi choragida AQShda o’rganila boshlagan. Chikago ilmiy maktabi vakillari ushbu ijtimoiy hodisani deviant, asotsial, jinoiy turmush tarzi bilan birlashtirilgan yoshlar jamoasining ma’lum bir ko’rinishi, deb hisoblashgan. Ular bu “deviant xulq atvorli kichik guruhlar oila, maktab, boshqa ijtimoiy institutlarning tanazzulga uchragan paytlarida paydo bo’la boshlagan. Mazkur ijtimoiy institutlar yosh avlod uchun o’z ahamiyati va ta’sirini yo’qotdi, endi ularni boshqarib bo’lmaydi, degan xulosaga kelishgan”[7:122]. Chikago maktabi vakillaridan biri, sotsiolog Milton Gordon submadaniyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: submadaniyat bu – ma’lum ijtimoiy sharoitlar kombinatsiyasida paydo bo’lgan milliy madaniyat klasteri, jumladan sinfiy maqom bo’lib, hudud va turmush tarzi, etnik kelib chiqishi, diniy mansubligi – bularning barchasi birgalikda funksional birlikni tashkil qiladi, bu esa o’z navbatida shaxsga yaxlit ta’sir ko’rsatishi va uning qadriyat yo’nalishlarini shakllantirishi mumkin.

1940-1950-yillarda E.Dyurkgeym va uning izdoshi R.Mertonning anomiya nazariyasi doirasida submadaniyat ijtimoiy hodisa sifatida o’rganilgan. Ular yoshlarning deviant xulq-atvorining sabablari jamiyatda ilgari surilgan madaniy maqsadlar, ideallar va ularga erishishning ijtimoiy ma’qullangan vositalari o’rtasidagi nomuvofiqliklar mavjudligida yashiringan bo’lishi

mumkin, deb taxmin qilishgan. Bu umidsizlikni yuzaga keltirishi va ma'lum bir jamiyat bilan birdamlik hissini yo'qolishiga sabab bo'lishi, bu esa o'z navbatida noqonuniy xatti-harakatlarni yuzaga keltirishi mumkinligini ta'kidlashgan.

Natijada, tadqiqotchilar submadaniyat jamoalari paydo bo'lishining sababi jamiyatda umum e'tirof etilgan va ijtimoiy tasdiqlangan harakat usullaridan foydalangan holda muvaffaqiyatga erisha olmaslikda bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelishdi. Yuqorida qayd etilgan sabablar yoshlarga ularni an'anaviy, hukmron madaniyatga qarama-qarshi bo'lgan o'ziga xos qadriyatlar, me'yorlar va ideallar tizimi bilan ajralib turadigan kichik jamoalarga birlashish uchun asos bo'ladi.


N.Slyusarenko fikricha, submadaniyatning tarkibiy qismlari va shu bilan birga uning belgilariga quyidagilar kiradi: bilim, qadriyatlar, turmush tarzi va yashash uslubi, amaliy bilimlar (ko'nikma, malaka, amalga oshirish usullari), ehtiyojlar va moyillik.

Submadaniyat shakllanganlik va mavjudlik mezoni bo'lib yuqorida keltirilgan parametrlar yig'indisi hisoblanadi. Bunda boshqa birlashmalardan farqli ma'lum madaniy belgilarga ega ijtimoiy guruh submadaniyat yaratuvchi va mazmun-mohiyatini ifodalovchisidir. Bu masalada avvalambor ijtimoiy guruhni keng ma'noda tushunish kerak, ya'ni asosiy belgisi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni emas, balki madaniyat bo'lgan insonlarning katta birlashmasi tushunilishi lozim.

Submadaniyatlarning ramziy belgilari ularni bir-biridan farqlash vositasi bo'lish bilan birga, ular o'tmish madaniyatlari belgilarining qayta jonlanishini ham ifodalaydi. Masalan, got submadaniyatiga oid «ankx» ramziy belgisi qadimgi Misr madaniyatiga xos sanaladi.

Submadaniylar belgilari

1-sxema



Submadaniyat fenomenini boshqa madaniy shakllardan ajratib turadigan bir qator belgilari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy madaniyatdan farqlanishi – Submadaniyat doimo jamiyatning asosiy madaniyatiga nisbatan o'ziga xos belgilar bilan ajralib turadi. Bu ajralish kiyinish uslubi, musiqiy yo'nalish, til va nutq shakllari, hayot tarzi yoki ramzlar orqali namoyon bo'ladi.
2. Guruhiy identitet – Submadaniyat ma'lum ijtimoiy guruh a'zolarining o'zini boshqalardan farqlash va o'zaro birlashtirish vositasidir. Guruh a'zolari o'zlarini submadaniyat ramzlari orqali anglaydi va shu orqali ijtimoiy birlikka erishadi.
3. O'ziga xos qadriyatlar tizimi – Har bir submadaniyat o'zining alohida qadriyatlari, e'tiqodlari va me'yorlarini shakllantiradi. Bu qadriyatlar ko'pincha umumiy jamiyat qadriyatlariga zid yoki muqobil bo'lishi mumkin.
4. Simvolik belgilar tizimi – Submadaniyat a'zolari o'zaro tanib olish, farqlanish va ifoda qilish uchun maxsus timsollar, belgilar, shiorlar, musiqiy janrlar, grafika yoki vizual kodlardan foydalanadi.
5. Norasmiylik – Submadaniyat ko'pincha rasmiy institutlardan tashqarida shakllanadi. U norasmiy muloqot, erkin tashabbus va ixtiyoriylik asosida mavjud bo'ladi.
6. Ijodiy erkinlik – Ko'pgina submadaniyatlar ijodkorlik, yangilik yaratish va o'ziga xos estetik shakllar orqali o'zini namoyon qiladi. Masalan, musiqiy submadaniyatlar yangi janrlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.
7. Jamiyatga nisbatan pozitsiya – Submadaniyatlar asosiy madaniyatni qo'llab-quvvatlovchi, unga muqobil yoki unga qarshi turuvchi shaklda bo'lishi mumkin. Masalan, sportchilar submadaniyati jamiyat qadriyatlari bilan uyg'unlashsa, ba'zi radikal submadaniyatlar unga qarshi chiqadi.
8. Dinamik xarakter – Submadaniyatlar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, ayrimlari yo'qoladi, yangilari paydo bo'ladi. Ular ijtimoiy sharoit va global jarayonlarga moslashib, shaklini o'zgartiradi.

Dastlabki yoshlar musiqiy submadaniyati — xippilar patsifistlar harakati (tinchlik uchun kurashuvchi guruh) vakillari hamda rok-musika ishqibozlaridan tashkil topgan edi. Ushbu madaniyat vakillarining ko'pchiligi uzun soch o'stirishadi va boshqa submadaniyatlar bilan umumiy dunyoqarashga ega. Xippilarning kiyinish uslubi zamonaviy libos dizayniga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Internetning rivojlanishi esa "kiberxippi" tushunchasini vujudga keltirdi. Ayni damda dunyoning turli mintaqalarida istiqomat qilayotgan ushbu submadaniyat vakillari virtual olam orqali ham o'zaro muloqotga kirishib, axborot almashishni yo'lga qo'ygan.

So'nggi yillarda "norasmiy guruhlar" tushunchasi keng tarqaldi. Norasmiy guruh a'zolari – bu kundalik hayotning rasmiy tuzilmalar a'zolaridan farqlanuvchi insonlar. Ularning xatti-

harakatlari odatiy xulq-atvor qoidalariga mos kelmaydi. Ular begonalar, tashqaridan majburlab singdirilgan emas, balki o'zining tasavvurlar bilan yashashga intilishadi.

1-jadval

Norasmiy guruhlar					
Musiqa	Madaniyat	Imidj	Mafkura	Bezorilar	Xobbi
Gotlar Panklar Rastamanlar Reperlar Emo	Otaku Furri	Kiber-gotlar Nudistlar Friklar	Antifa Skinxedlar Xippilar Yappilar	Gopniklar Ultras Futbol bezorilari	Baykerlar Rayterlar Treyserlar

Norasmiy guruhlarining xususiyati bu ularga a'zolikning ixtiyoriyligi hamda ma'lum maqsad, g'oyaga nisbatan barqaror qiziqishdir. Ushbu guruhlarining ikkinchi xususiyati – bu shaxsning o'z imkoniyatlarini ruyobga chiqarishga bo'lgan ehtiyojning asosini tashkil qilgan raqobat. Bunda yoshlar boshqalarga, hatto eng yaqin insonlariga qaraganda yaxshiroq bajarishga intiladi. Bunda yoshlar guruhlarining ichki tuzilishi har xil bo'lganligi uchun yoqtirish/yoqtirmaslik asosida birlashgan ko'p sonli kichik guruhlardan tashkil topishiga sabab bo'ladi.

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida submadaniyat fenomeni yanada murakkablashib, turli shakllarda namoyon bo'lmoqda. Agar ilgari submadaniyat ko'proq mahalliy hududlarda, an'anaviy guruhlar yoki yoshlar harakati sifatida ko'zga tashlangan bo'lsa, hozirgi kunda u global madaniy oqimlarning ajralmas qismiga aylanib qoldi. Zamonaviy submadaniyatlarning shakllanishida ijtimoiy tarmoqlar, internet, raqamli kommunikatsiyalar va ommaviy madaniyatning ta'siri beqiyosdir. Mana shu holatdan kelib chiqib bizningcha submadaniyatlarning zamonaviy ko'rinishlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Raqamli submadaniyatlar. XXI asrda internet va virtual maydonning kengayishi natijasida "raqamli submadaniyatlar" paydo bo'ldi. Ular turli onlayn platformalarda shakllanib, butun dunyo yoshlari va ijtimoiy guruhlarini birlashtiradi. "Gamerlar" (kompyuter o'yinlari muxlislari), "bloggerlar", "streamerlar" yoki "cosplayerlar" (kino va o'yin qahramonlari qiyofasida sahnaga chiqadiganlar) zamonaviy raqamli submadaniyatlarning yorqin namunasidir. Bu guruhlar o'ziga xos tili, belgisi va ramzlari, o'zaro muloqot uslublari bilan ajralib turadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar ham submadaniyatlar uchun maxsus maydon yaratib berdi. Masalan, TikTok yoki Instagram platformalarida shakllangan "trend"lar, moda oqimlari, musiqiy chalish va raqs uslublari ham yangi submadaniyat qatlamlarini yuzaga keltirdi. Bu jarayonlar yoshlarning o'zini ifoda etish, mashhurlikka erishish va ijtimoiy aloqalarini kengaytirish vositasiga aylandi.

2. Musiqa va moda submadaniyatlari. Musiqa doimo submadaniyatlarning markazida bo'lgan. Zamonaviy davrda ham rap, hip-hop, K-pop, elektron musiqa yoki rok yo'nalishlari

atrofida turli submadaniyatlar shakllanmoqda. Hip-hop submadaniyati nafaqat musiqada, balki kiyinish uslubi, graffiti san'ati va maxsus nutq shakllarida ham namoyon bo'ladi. K-pop muxlislari esa global miqyosda yagona submadaniyatga birlashib, o'z ramzlari, shiorlari va onlayn faolligi bilan ajralib turadi.

Moda ham zamonaviy submadaniyatlarning ajralmas qismidir. Yoshlar orasida "streetwear" (ko'cha uslubi), "goth" (qora rang ustuvor bo'lgan estetik yo'nalish), "punk" yoki "retro" kiyinish uslublari submadaniy identitetning muhim belgisi hisoblanadi. Shu tariqa kiyinish nafaqat tashqi ko'rinish, balki guruhiiy tegishlilik va qarashlarni ifodalash vositasiga aylangan.

3. Virtual va kiber submadaniyatlar. Raqamli dunyo kengaygani sari "virtual submadaniyatlar" paydo bo'ldi. Masalan, "anime" va "manga" muxlislari, "cyberpunk" tarafdorlari yoki "metavers" jamoalari buning misolidir. Bu submadaniyatlar nafaqat virtual kontent iste'mol qilish, balki yangi estetik yo'nalishlarni yaratish orqali ham ajralib turadi.

Shuningdek, kiberxavfsizlik, "hakerlar" va "anonim" harakatlari ham o'ziga xos submadaniyatni tashkil etadi. Ular jamiyatdagi axborot erkinligi, shaffoflik va nazorat muammolariga o'z nuqtai nazarini bildiradi. Bu submadaniyatlar ko'pincha norasmiylik va qarshilik kayfiyatiga ega bo'ladi.

4. Ijtimoiy-siyosiy submadaniyatlar. Zamonaviy jamiyatda turli ijtimoiy-siyosiy qarashlar asosida ham submadaniyatlar shakllanadi. Masalan, ekologik faollar, feministlar, hayvon huquqlarini himoya qiluvchilar yoki "yashil" harakat tarafdorlari shular jumlasidandir. Bu submadaniyatlar nafaqat ramzlar va estetik ko'rinish, balki muayyan ijtimoiy missiya va g'oyaga asoslanadi.

Bunday submadaniyatlar jamiyatni yangilash, ekologik muammolarni hal qilish, tenglik va adolatni targ'ib etishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois ularni nafaqat madaniy, balki ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida ham ko'rish lozim.

Zamonaviy submadaniyatlar – bu raqamli kommunikatsiya, globallashuv, musiqiy va modaviy oqimlar, sport, siyosiy harakatlar va virtual maydonlar ta'sirida shakllanayotgan murakkab hodisalardir. Ular shaxsning o'zini ifoda etish, guruhiiy identitetni topish, ijtimoiy muammolarga munosabat bildirishning yangi shakllarini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, ayrim submadaniyatlar jamiyat qadriyatlariga zid qarashlarni ham targ'ib qilishi mumkin. Demak, submadaniyatlarning zamonaviy ko'rinishlarini tahlil qilish nafaqat madaniyatshunoslik, balki ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar uchun ham nihoyatda muhimdir.

Xulosa. Birinchidan, submadaniyat fenomeni jamiyat umumiy madaniyati tarkibida paydo bo'lib, ijtimoiy guruhlarning alohida qadriyatlari, ramzlari va qarashlarini ifodalaydi. U shaxsiy identitetni shakllantirishda hamda ijtimoiy guruhlarning o'zini ajratib ko'rsatishida muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, submadaniyatlarning kelib chiqishiga yoshlarning o'zini anglash jarayoni, ijtimoiy tengsizlik, siyosiy va iqtisodiy muammolar, shuningdek globallashuv va raqamli kommunikatsiyalar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar submadaniyatni jamiyatning murakkab, dinamik va o'zgaruvchan hodisasiga aylantiradi.

Uchinchidan, zamonaviy davrda submadaniyatlarning ko'rinishlari yanada kengaydi. Raqamli, musiqiy, modaviy, sport, virtual va ijtimoiy-siyosiy submadaniyatlar yoshlarning ijodiy erkinligini ta'minlaydi. Ular jamiyatda yangi madaniy shakllar, estetik qarashlar va ijtimoiy aloqalarning shakllanishiga imkon yaratadi.

To'rtinchidan, submadaniyatlar jamiyat madaniyatini boyituvchi, yangilanishga xizmat qiluvchi manba bo'lishi bilan birga, ayrim hollarda asosiy qadriyatlarga zid qarashlarni ham targ'ib qilishi mumkin. Shu sababli ularning ijtimoiy-falsafiy tahlili, ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur o'rganish dolzarbdir.

Beshinchidan, milliy va global jarayonlarning uyg'unlashuvi natijasida submadaniyatlar yangi shakllarda namoyon bo'lmoqda. Xususan, o'zbek yoshlarining global oqimlarga qo'shilishi milliy qadriyatlar bilan sintezlanib, o'ziga xos submadaniyatlarni yuzaga keltiradi. Bu esa jamiyat madaniyatini yangilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Смелзер Н. Социология / Пер. с англ.; Науч. ред. В.А. Ядов. – М.: “Феникс”, 1998. – С.841.
2. Роззак Т. Философская культура перев. Султанова М.А. – М.: “ИФ РАН”, 2005. –С.194.
3. Бессарабова, И.С. Современное состояние и тенденции развития поликультурного образования в США: Дис. ... д. пед. наук / И.С. Бессарабова. – Волгоград: “ВГПУ”, 2009. – С. 218–219.
4. Шабанов, Л.В. Социально психологические характеристики молодежных субкультур: социальный протест или вынужденная маргинальность. – Томск: Томский государственный университет, 2005. –С.399.
5. Bayanova A.R. et al. A philosophical view of organizational culture policy in contemporary universities. *European Journal of Science and Theology*, v. 15, n. 3, p. 121- 131, 2019.
6. Гуревич, П.С. Культурология / П.С. Гуревич. – Москва.: “Омега-Л”, 2010. – С.427.
7. Самыгин, С. И. Субкультуры и культуры соучастия - сходство и различие / С. И. Самыгин, Д. В. Кротов, Н. А. Шилина – Текст : электронный // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. – 017. – №8-9. – С. 122.